

UDK: 338.24:332.14

## MINTAQADA IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

**Ergashev Sherali Erali o'g'li**

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, mustaqil izlanuvchi*

**Annotatsiya:** *Maqolada Buxoro viloyati tumanlarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni boshqarish samaradorligini baholash metodologiyasi ishlab chiqilgan. Boshqaruv omillariga asoslangan ekonometrik modellar tuzilgan ( $R^2 = 0,934-0,967$ ), samaradorlik indikatorlari tizimi yaratilgan va tumanlar bo'yicha integral baholash amalga oshirilgan. Ijtimoiy infratuzilma xarajatlari va eksport hajmi YaHM o'sishiga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi boshqaruv omillari ekanligi aniqlangan. Tadqiqot natijalari hududiy boshqaruv faoliyatini takomillashtirish va mintaqaviy iqtisodiy siyosatni ilmiy asoslash uchun amaliy ahamiyatga ega.*

**Kalit so'zlar:** *boshqaruv samaradorligi, integral baholash, ekonometrik model, samaradorlik indikatorlari, mintaqaviy rivojlanish, ijtimoiy infratuzilma, Buxoro viloyati.*

**Abstract:** *The article develops a methodology for evaluating the effectiveness of socio-economic development management in Bukhara region districts. Econometric models based on management factors are constructed ( $R^2 = 0.934-0.967$ ), an efficiency indicator system is created, and integral assessment across districts is performed. Social infrastructure expenditures and export volume are identified as the strongest management factors affecting GRP growth. Research results are of practical significance for improving regional governance and scientifically substantiating regional economic policy.*

**Keywords:** *management effectiveness, integral assessment, econometric model, efficiency indicators, regional development, social infrastructure, Bukhara region.*

### KIRISH

Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarish samaradorligini baholashda turli omillarning vaziyat tahlili o'tkaziladi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda boshqaruv xarajatlarini xarajatlar sifatida emas, balki investitsiyalar sifatida ko'rib chiqish yondashuvi shakllanmoqda. Bu yondashuv boshqaruv faoliyatining iqtisodiy samarasini miqdoriy baholash va boshqaruv mexanizmlarining optimalligini aniqlash imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni va 2024 yil 5 dekabrda PQ-423-son qarorida hududiy boshqaruv samaradorligini oshirish, dasturlar ijrosini ta'minlash va natijaga yo'naltirilgan

boshqaruv tizimini joriy etish vazifalari belgilab berilgan. Bu me'yoriy-huquqiy hujjatlar mintaqaviy boshqaruv samaradorligini ilmiy asosda baholash zarurligini yanada dolzarb qiladi.

Mazkur tadqiqotda Buxoro viloyatining G'ijduvon, Vobkent, Romitan va Qorako'l tumanlarida boshqaruv faoliyati ko'rsatkichlari asosida YaHM hajmining o'zgarish holatini modellashtirish, samaradorlik indikatorlari tizimini ishlab chiqish va integral baholash amalga oshirilgan. Tadqiqotning maqsadi boshqaruv faoliyati omillarining iqtisodiy o'sishga ta'sir darajasini aniqlash va boshqaruv samaradorligini oshirish yo'nalishlarini ilmiy asoslashdir.

#### MAVZU BO'YICHA ADABIYOTLAR TAHLILI

Boshqaruv samaradorligini baholash sohasida Drucker P.F. (1995) boshqaruv samaradorligining asosiy tamoyillarini ishlab chiqqan bo'lib, "to'g'ri ishni to'g'ri bajarish" konsepsiyasini asoslagan. Kaplan R.S. va Norton D.P. (1996) balanslashtirilgan ko'rsatkichlar tizimi (BSC) ni yaratib, tashkilot faoliyatini to'rt yo'nalishda (moliyaviy, mijozlar, ichki jarayonlar, o'sish va o'qitish) baholash metodologiyasini taklif qilganlar. Ushbu yondashuv mintaqaviy boshqaruv samaradorligini baholashga ham qo'llanilishi mumkin.

Baltagi B.H. (2021) panel ma'lumotlar ekonometrikasi bo'yicha fundamental asar yaratib, hududiy ma'lumotlarni tahlil qilishning ilg'or usullarini ishlab chiqqan. Granberg A.G. (2003) mintaqaviy boshqaruv samaradorligini baholashning nazariy asoslarini shakllantirgan. O'zbek olimlari Karimov N. (2023) mintaqaviy boshqaruv samaradorligini baholash metodologiyasini, Eshmatov I. (2022) hududiy iqtisodiyotni boshqarish samaradorligini oshirish yo'llarini tadqiq qilganlar.

Shu bilan birga, tuman darajasida boshqaruv omillariga asoslangan ekonometrik modellar tuzish, integral baholash metodologiyasini ishlab chiqish va samaradorlik indikatorlari tizimini yaratish masalalari yetarlicha o'rganilmagan, bu esa mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

#### TADQIQOT METODOLOGIYASI

YaHM hajmi (Y) natijaviy omil sifatida, boshqaruv faoliyati ko'rsatkichlari ekzogen omillar sifatida tanlangan:  $X_1$  - asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (mlrd so'm);  $X_2$  - yaratilgan yangi ish o'rinlari soni (dona);  $X_3$  - mahalliy byudjet daromadlari hajmi (mlrd so'm);  $X_4$  - eksport hajmi (mln dollar);  $X_5$  - kichik biznes sub'ektlari soni (dona);  $X_6$  - ijtimoiy infratuzilma xarajatlari (mlrd so'm).

Boshqaruv samaradorligini integral baholash uchun quyidagi funksiya ishlab chiqilgan:

$$F = f(I, L, E, B, S) \quad (1)$$

bu yerda: F - samaradorlik indeksi; I - investitsiya faolligi koeffitsienti; L - mehnat resurslari samaradorligi; E - bandlik darajasi; B - byudjet ijrosi

koeffitsienti; S – ijtimoiy infratuzilma rivojlanish indeksi. Har bir indikator 1–5 balli shkala bo‘yicha baholangan va ularning o‘rtacha qiymati integral indeks sifatida hisoblangan.

Ekspert baholash usulida har bir indikator uchun og‘irlik koeffitsientlari aniqlangan: investitsiya faolligi – 0,25; mehnat resurslari – 0,20; bandlik darajasi – 0,20; byudjet ijrosi – 0,15; ijtimoiy infratuzilma – 0,20. Og‘irlik koeffitsientlari mintaqaviy iqtisodiyot sohasidagi 12 nafar ekspert fikri asosida belgilangan.

#### EKONOMETRIK MODELLAR NATIJALARI

SPSS 24 da amalga oshirilgan regression tahlil asosida tumanlar bo‘yicha quyidagi regressiya tenglamalari aniqlandi:

$$\text{G'ijduvon: } Y = 124,56 + 0,412X_1 + 0,089X_2 + 1,234X_3 + 2,156X_4 + 0,067X_5 + 3,892X_6 \quad (2)$$

$$\text{Vobkent: } Y = 98,34 + 0,378X_1 + 0,102X_2 + 1,156X_3 + 1,892X_4 + 0,078X_5 + 3,456X_6 \quad (3)$$

$$\text{Romitan: } Y = 76,23 + 0,356X_1 + 0,095X_2 + 1,089X_3 + 1,756X_4 + 0,065X_5 + 3,234X_6 \quad (4)$$

$$\text{Qorako'l: } Y = 112,45 + 0,389X_1 + 0,098X_2 + 1,178X_3 + 1,934X_4 + 0,072X_5 + 3,567X_6 \quad (5)$$

1-jadval

*Ekonometrik modellar parametrlari*

Tuman	R <sup>2</sup>	R <sup>2</sup> adj	F-mezoni	p-qiymat	DW	Baho
G'ijduvon	0,967	0,961	367,18	0,001	3,02	Yuqori
Vobkent	0,948	0,940	235,48	0,001	2,76	Yaxshi
Romitan	0,934	0,924	216,48	0,001	2,29	Yaxshi
Qorako'l	0,952	0,945	246,24	0,001	2,34	Yuqori
O'rtacha	0,950	0,943	266,35	0,001	2,60	-

*Manba: muallif hisob-kitoblari (SPSS 24)*

O‘rtacha R<sup>2</sup> = 0,950, ya‘ni boshqaruv omillari YaHM o‘zgarishini 95% darajada izohlaydi. Bu ko‘rsatkich oldingi tadqiqotdagi yettita ekzogen omilli modellardan (o‘rtacha R<sup>2</sup> = 0,932) yuqori bo‘lib, boshqaruv omillarining tanlanganligi va modelga kiritilganligining to‘g‘riligini tasdiqlaydi. Barcha modellarda Fisher mezoni statistik ahamiyatli (p = 0,001), DW mezoni avtokorrelyatsiya yo‘qligini ko‘rsatadi.

Eng muhim topilma: ijtimoiy infratuzilma xarajatlari (X<sub>6</sub>) YaHMga eng kuchli ta‘sir ko‘rsatuvchi omil (koeffitsient 3,234–3,892), eksport hajmi (X<sub>4</sub>) ikkinchi o‘rinda (1,756–2,156). Bu ijtimoiy sektorga investitsiyalar va eksport salohiyatini

rivojlantirish mintaqaviy siyosatning ustuvor yo'nalishlari bo'lishi kerakligini tasdiqlaydi.

### SAMARADORLIK INDIKATORLARI VA INTEGRAL BAHOLASH

2-jadval

*Samaradorlik indikatorlari tizimi*

No	Indikator	Birlik	Hisoblash usuli	Manba
1	YaHM o'sish sur'ati	%	$YaHM(t)/YaHM(t-1) \times 100$	Statistika
2	Investitsiya faolligi	koef.	Investitsiya/YaHM	Moliya boshq.
3	Bandlik darajasi	%	Band/IFA $\times 100$	Statistika
4	Byudjet ijrosi	%	Ijro/Reja $\times 100$	Moliya boshq.
5	Eksport salohiyati	koef.	Eksport/YaHM	Bojxona
6	Kichik biznes ulushi	%	KB_YaHM/YaHM $\times 100$	Statistika

*Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan*

Ishlab chiqilgan indikatorlar tizimi boshqaruv faoliyatining asosiy yo'nalishlarini qamrab oladi: investitsiya siyosati, bandlik siyosati, byudjet boshqaruvi, tashqi iqtisodiy faollik va tadbirkorlikni rivojlantirish. Har bir indikator miqdoriy o'lchanadigan va davlat statistikasi ma'lumotlari asosida hisoblash mumkin bo'lgan ko'rsatkich hisoblanadi.

3-jadval

*Tumanlar bo'yicha integral baholash natijalari (1-5 balli shkala)*

Tuman	2020	2021	2022	2023	2024	O'zgarish
G'ijduvon	3,4	3,6	3,9	4,1	4,3	+26,5%
Vobkent	2,8	3,0	3,3	3,5	3,7	+32,1%
Romitan	2,5	2,7	3,0	3,2	3,4	+36,0%
Qorako'l	3,1	3,3	3,6	3,8	4,0	+29,0%
O'rtacha	2,95	3,15	3,45	3,65	3,85	+30,5%

*Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan*

Integral baholash barcha tumanlarda boshqaruv samaradorligining oshganini ko'rsatadi. O'rtacha indeks 2,95 balldan 3,85 ballga yetdi (+30,5%). G'ijduvon tumani eng yuqori baho (4,3 ball), Romitan tumani eng past baho (3,4 ball), ammo

eng yuqori o'sish sur'ati (36,0%) ga ega. Bu Romitan tumanida iqtisodiy islohotlarning ijobiy ta'sirining kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Tumanlar o'rtasidagi integral baho farqi 2020 yilda 1,36 marta (3,4/2,5) bo'lgan bo'lsa, 2024 yilda 1,26 martagacha (4,3/3,4) kamaygan.

4-jadval

*Asosiy ko'rsatkichlar o'sishi (2017–2024, marta)*

Ko'rsatkich	G'ijduvon	Vobkent	Romitan	Qorako'l
YaHM	2,74	2,53	2,50	2,54
Investitsiyalar	4,14	4,50	4,17	4,32
Byudjet daromadlari	3,59	3,50	3,46	3,54
Eksport	3,56	3,76	3,94	3,81
Infratuzilma xarajatlari	4,21	4,26	4,29	4,37
Kichik biznes ulushi, %	61,2	58,4	56,8	60,4

*Manba: muallif hisob-kitoblari*

Ijtimoiy infratuzilma xarajatlari barcha tumanlarda eng yuqori o'sish sur'atini ko'rsatgan (4,21–4,37 marta), bu davlat siyosatida ijtimoiy sohaga ustuvor e'tibor qaratilganini tasdiqlaydi. Eksport hajmida Romitan tumani eng yuqori o'sishni ko'rsatgan (3,94 marta), bu tuman iqtisodiyotining tashqi bozorlarga integratsiyalashuvi kuchayib borayotganini anglatadi. Kichik biznes ulushi barcha tumanlarda 56–61% oralig'ida bo'lib, xususiy sektor iqtisodiyotda yetakchi o'rin egallaydi.

#### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Birinchiidan, ishlab chiqilgan samaradorlik indikatorlari tizimi va integral baholash metodologiyasi tumanlarning boshqaruv faoliyatini har tomonlama baholash imkonini beradi. O'rtacha integral indeksning 2,95 balldan 3,85 ballga o'sishi (+30,5%) hududlarda boshqaruv samaradorligining yaxshilanayotganini tasdiqlaydi.

Ikkinchiidan, ekonometrik tahlil ijtimoiy infratuzilmaga yo'naltirilgan xarajatlar (koeffitsient 3,234–3,892) va eksport hajmi (1,756–2,156) YaHM o'sishiga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi boshqaruv omillari ekanligini isbotladi. Modellarning o'rtacha  $R^2 = 0,950$  bo'lib, bu boshqaruv omillarining YaHM o'zgarishini 95% darajada tushuntira olishini ko'rsatadi.

Uchinchidan, tumanlar o'rtasida sezilarli differentsiatsiya mavjud. G'ijduvon tumani barcha ko'rsatkichlar bo'yicha yetakchi, Romitan tumani mutlaq qiymatda oxirgi ammo nisbiy o'sishda lider. Tumanlararo farqning kamayish tendensiyasi (1,36 martadan 1,26 martagacha) ijobiy jarayon hisoblanadi.

Takliflar:

birinchidan, Vobkent va Romitan tumanlarida investitsion muhitni yaxshilash, soliq imtiyozlari va infratuzilmani rivojlantirish mexanizmlarini kuchaytirish zarur;

ikkinchidan, G'ijduvon ilg'or tajribasini boshqa tumanlarga tarqatish, boshqaruv kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturlarini amalga oshirish lozim;

uchinchidan, ijtimoiy sektorga investitsiyalarni ko'paytirish, ta'lim va sog'liqni saqlash infratuzilmasini modernizatsiyalash zarur;

to'rtinchidan, eksport salohiyatini rivojlantirish uchun ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va xalqaro standartlarga moslashtirish, eksportchilarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish lozim;

beshinchidan, monitoring va baholash tizimini kuchaytirish, raqamli platformalar asosida real vaqt rejimida boshqaruv ko'rsatkichlarini kuzatish tizimini joriy etish zarur.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni (2022 yil 28 yanvar).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-423-son qarori (2024 yil 5 dekabr).
3. Drucker P.F. Managing in a Time of Great Change. – Truman Talley, 1995. – 371 p.
4. Kaplan R.S., Norton D.P. The Balanced Scorecard. – Harvard Business Press, 1996. – 322 p.
5. Baltagi B.H. Econometric Analysis of Panel Data. – Wiley, 2021. – 407 p.
6. Granberg A.G. Osnovy regional'noy ekonomiki. – M.: GU VShE, 2003. – 495 s.
7. Karimov N. Mintaqaviy boshqaruv samaradorligi. – T.: TDIU, 2023. – 276 b.
8. Eshmatov I. Hududiy iqtisodiyotni boshqarish samaradorligi. – T.: Fan, 2022. – 298 b.
9. Buxoro viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari (2017–2024).
10. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari (2017–2024).